

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani
_____ dos.M.Rabbimov.
“_____” _____ 2012 y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Mavzu: «Boshlang'ich ona tili ta'limidagi yozma ishlar va ularni olib borish
metodikasi» mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: USMONOVA Z.

**Ilmiy rahbar: prof. Mirqosimova
M..**

Ishni himoyaga tavsiya etaman

prof. Mirqosimova M
(илмий раҳбар исми ва шарифи)

(имзо)

BMI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 4.05.2012 y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

prof.Jumanazarov U.A.
(Ismi va sharifi)

(imzo)

Jizzax - 2012

KIRISH.....

I BOB. HAMZANING IJODI VA PEDAGOGIK FAOLIYATI.....

1.1. Hamza ijodi.....

1.2. Hamzaning pedagogik faoliyati.....

II BOB. HAMZANING IJODIY MEROSI.....

2.1. Hamza yaratgan darsliklar.....

2.2. Hamzaning badiiy ijodi.....

UMUMIY XULOSALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim te bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «**Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari**» asarida O`zbekistonda qabul qilingan o`ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan¹. Buni ta'minlash bo`lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo`llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug`ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o`zining «**Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch**» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga

¹ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. - Toshkent: O`zbekiston,2009. – 6.7.

etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi².

Yoshlarda insonparvarlikni shakllanishida ulug` allomalarimizning qoldirgan noyob asarlari va ularning o`gitlariga bog`liq bo`lib, bu hususda boy ma'naviy merosimiz asoschilari Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Kaykovus, Ibn Sino, Amir Temur, Beruniy, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa allomalarimizning ulkan xizmatlarini o`rganish va uni amalga tatbiq etish bugungi kunning, ayniqsa pedagogika fanining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu - jadidshunoslar tomonidan yakdil e'tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o`zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, Millat, Vatan istiqloli edi. Ma'lumki, bunday buyuk o`zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi. Buning uchun taraqqiy etgan millatlar bilan hamqadam avlodni tarbiyalab etishtirish kerak. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug`bek, Navoiy kabi buyuk jahoniy mutafakkirlarni tarbiyalab etishtirgan an'anaviy mahalliy maktablar XVI asrdan boshlab jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qolgan, buning ustiga, mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan, mahalliy maktablar va ta'lim-tarbiya

² I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

tizimi bilan bu buyuk vazifani bajarish mumkin emas edi. Shuning uchun ham mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, oliy o`quv yurtlari tashkil qilish jadid mutafakkirlarining birlamchi va asosiy vazifasiga aylandi. Jadid pedagoglari ibtidoiy maktablarni “usuli savtiya” (“tovush usuli”) metodi asosida qayta tiklash masalasini millat miqyosiga ko`tardilar: dastlabki alifbolar, aniq fanlar bo`yicha darsliklar, o`qish kitoblarini yaratdilar. Gubernatorlik ma'murlari, mutaassib ulamolar qarshiliklarini engib, zamon talablariga javob bera oladigan o`qituvchi-kadrlar zumrasini tarbiyalab etishtirdilar. Ularning bunday faoliyati keskin kurashlar, ta'qib va tazyiqlar jarayonida kechdi.

Jadidchilik, mohiyat e'tiboriga ko`ra, maorifni tubdan isloh etishdan boshlangan bo`lsa-da, mazkur davrda yuzaga kelgan har bir ijtimoiy-siyosiy hodisa jadidlar ta'siri doirasida bo`lgan. To`la ishonch bilan aytish kerak, usuli jadid maktablari ochish zaminida ham siyosiy masala - istiqlol, millatni mustamlaka zulmidan ozod qilish, taraqqiy topgan, farovon millatlar qatorida ko`rish G`oyasi hukmron edi. Yana shuni unutmaslik kerakki, sho`rolar davrida eng ko`p noilmiy talqin qilingan, ko`plab namoyandalari, rahbarlari faoliyatini o`rganish man etilgan davr ham mana shu XIX asr oxri va XX asr boshlari davridir. Chunki jadid mutafakkirlari

faoliyati zaminida antikolonial maqsadlar, milliy istiqlol g'oyasi yotar ediki, bu g'oya oq va qizil imperiyaga birday ma'qul emas edi. Sho'rolar hukumati ularga qarshi nihoyatda dahshatli - ham jisman, ham ma'nan yo'q qilish siyosatini olib bordi va yigirma yil ichida ularning deyarli hammasi qatag'on qurboni bo'ldilar.

Jadidchilik pedagogikasini o'rganishning yana muhim jihati shundaki, XX asr boshi va oxiridagi ma'naviy, pedagogik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'rtasida nihoyatda yaqinlik mavjud. Jadidlar millat va Vatan taqdiri, istiqloli uchun kurash olib bordilar, ular milliy hukumat -“Turkiston muxtoriyati”ni vujudga keltirdilar, ammo millat uni saqlab qololmadi. Chunki hali millat o'zlikni anglash, milliy uyG'onish bosqichida edi. Buning ustiga, mustaqillik, istiqlol haqida ming xil va'dalar bilan bolsheviklar hukumati o'ta qabih, munofiqona siyosat olib bordi, Turkiston muxtoriyatini oyoqqa turmasdanoq qonga botirdi. Shunday bo'lsa-da, bu jadid mutafakkirlarining mustamlakadan mustaqillik sari qo'ygan shahdam qadami edi.

XX asr oxiriga kelib, xalqimiz jadid mutafakkirlari orzulagan va hatto o'z aziz hayotlarini fido qilgan mustaqillikka erishdi. Bu davrda millat o'zligini anglab etgan, istiqlolni chuqur idrok etgan va uni mustahkamlay oladigan darajada edi. Shu ma'noda, “usuli jadid” maktablarining maqsad va

mohiyatini o`rganish hozirda istiqlol mafkurasini ishlab chiqishda muhim siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega.

“Usuli jadid” maktablarining vujudga kelishi bilan an'anaviy o`qitish usullarini tubdan isloh qilish, o`qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va shu usullar zaminida darsliklar, o`quv qo`llanmalarini yaratish jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. Jadid pedagoglarining o`qitish metodlari sohasidagi faoliyatlari, asosan, ularning darslik va o`quv qo`llanmalarida o`z ifodasini topgan. O`qitishda ko`rgazmalilik (Munavvarqori), ifodali o`qish, uning turlari, ularda texnik vositalardan foydalanish (Abdulla Avloniy, Hamza), oG`zaki va yozma nutq o`stirish usullari (Mahmudxo`ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat) kabi ona tili va adabiyot o`qitishning muhim masalalari ishlab chiqildi.

Jadid pedagoglari faoliyatida yoshlarni “Turon”, “Turkiston” nomlari bilan atalmish ona-Vatanga, millatga muhabbat ruhida tarbiyalash G`oyasi etakchilik qildi. Bu erli millat bolalari uchun ochilgan rus va rus-tuzem maktablarida o`zga millat, o`zga vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ustivor g`oya bo`lib turgan bir vaqtda bunday tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarini o'rganishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlari.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarini o'qitish asoslari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozimligi aniqlandi:

- Mavzuga oid pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarni, me'yoriy hujjatlarni o'rganish tahlil qilish va umumlashtirish;
- Muammoning nazariy hamda amaliy asoslarini tadqiq qilish asosida uning dolzarb pedagogik muammo ekanligini dalillab berish;
- boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarining o'ziga xos va umumiy pedagogik xususiyatlarini aniqlash.
- boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarining o'qitishning nazariy asoslarini aniqlash.

- **Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi** boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarini o'qitishning xususiyatlari aniqlandi.

- boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarining o'ziga xos va umumiy pedagogik xususiyatlarini aniqlandi.

- boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarining o'qitishning nazariy asoslarini aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarini o'qitishning yo'llari ko'rsatildi.

Yoshlarning barkamol bo'lib ulg'ayishida jadid boshlang'ich ta'limda Hamzaning ijodiy merosini va pedagogik qarashlarining o'qitish mashg'ulotlarining ahamiyati ochib berildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi quyidagicha: kirish, ikki bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. HAMZANING IJODI VA PEDAGOGIK FAOLIYATI

1.1. Hamza ijodi

Jadid mutafakkirlariga xos fazilat shundaki, ular badiiy ijodning turli sohalarida betakror asarlar yaratish bilan birga, murabbiy, mohir pedagog sifatida maktablar ochdilar, muallimlik qildilar, maktablar uchun darslik va qo'llanmalar yaratdilar. Mana shunday faoliyat sohiblaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziydir. U shoir, nosir, dramaturg, bastakor-kompozitor, shu bilan birga, jadid pedagogikasining etakchi namoyandalaridan biri, umrining oxirigacha muallimlikni tark etmagan murabbiydir.

Hamza 1889 yil 6 martda Qo`qon shahrida ziyoli oilada - tabib Ibn Yamin Niyoz o`g`li oilasida tug`ildi. Ibn Yamin o`zbek, arab, fors tillaridan ancha savodli bo`lib, Qo`qon ulamosi o`rtasida katta e'tiborga loyiq tabib edi. Onasi Jahonbib garchi maktabda o`qimagan bo`lsa-da, xalq qo`shiqclarini, alla va ertaklarini yaxshi bilgan. Bu muhit Hamzaning ma'naviy kamolotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan.

Hamza 1896-1903 yillarda "usuli qadim" metodiga asoslangan ibtidoiy mahalla maktabida o`qiydi. 1900 yillarga kelib Qo`qonda ilk bor "usuli jadid" maktablari paydo bo`la boshlagan edi. Hamza bunday maktabda o`qishni orzu qildi, chunki unda tartib-intizom, o`qitish usullari, o`qitiladigan ilmlar Hamzani hayratga soldi. Ammo uning bu xohishlari

otaga yoqmadi. Ibn Yamin o'g'lining diniy arbob bo'lishini orzu qilar edi. Hamzaning madrasada tahsil ko'rgan davri 1906-1907 yillarga to'g'ri keladi, shu bilan birga, rus-tuzem maktabida birmuncha vaqt rus tilini o'rganadi. 1909 yilda otasiga Namangandan fors va arab tillarida yozgan xatlari uning madrasada o'qib yurgan vaqtlaridayoq bu tillarni ancha mukammal o'rganib olganligini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Hamza 1907 yilda Qo'qonda birmuncha muddat jadid ma'rifatchilaridan, katta sarmoyador Obidjon Mahmudov (1858-1936) qo'lida ish yurituvchi bo'lib ishlaydi.

XX asr boshlarida sodir bo'layotgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1905 yilgi inqilobiy harakatlar Rusiyaning chekka o'lkalari xalqlarida ma'rifat, ozodlik, istiqlol sari intilishlariga turtki bo'ldi. Hamza 1908 yilning oxiri, 1909 yilning boshlarida Namanganda yashaydi va shu erda o'qishni davom ettiradi, ancha ma'rifatli tatar maorifchisi Abdulla To'qmulin bilan tanishadi, undan dars oladi: "U manim qo'limda o'z qalamim bilan yuz sahifadan ortiqroq eski usuldagi yozishmalarimni ko'rub, tarbiyag'a kirishdi", - deb yozadi u tarjimai holida. 1909 yilda Hamza Buxoroning mashhur taraqqiyparvar mudarrislaridan, "usuli jadid" maktablari tarafdorlaridan bo'lmish Muhammad Ikrom ibn Abdusalom qo'lida arab

tilini yanada mukammal o`rganish uchun Buxoroga boradi, ammo shia' va sunniy o`rtasida avjga chiqqan janjal bunga imkon bermaydi.

Bu davrda Ismoilbek Gaspralining “Tarjimon”, Fotih Karimiyning “Vaqt” gazetalari, Rizo Faxriddinning “Sho`ro” jurnali, shu bilan birga, o`zbek tilida Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning “Taraqqiy”, Munavvarqori Abdurashidxon o`g`lining “Xurshid”, Abdulla Avloniyning “Shuhrat” gazetalari bilan yaqindan tanishdi, ular bilan aloqa o`rnatdi. Hamzaning ilk she'rlari va maqolalari shu gazetalarda chop etildi.

“Tarjimon” gazetasini muntazam kuzatib borgan Hamza Gaspralining 1906-1907 yillarda shu gazeta sahifalarida bosilgan, butun turk olamining, shu jumladan, Turkiston o`lkasining mustamlaka asorati botqog`iga tushib qolishi sabablari haqida bahs yurituvchi “Mukolamai salotin” (“Sultonlar mubohasasi”) asari bilan tanish bo`lgan.

Jadid mutafakkirlari mustamlaka ma'murlari va mutaassib din peshvolari tomonidan uyushtirilgan turli-tuman to`siqlarni engib, xalq ongini oqartirish, o`zligini tanitish yo`lida, birinchi navbatda, maktab-madrasalarni tubdan isloh qilish, “usuli jadid” maktablari ochish, milliy matbuot, milliy teatrni yo`lga qo`yish uchun kurash olib bordilar. Hamza bunday kurashlarda o`sib-ulg`aydi.

Hamza 1910 yilda Toshkentga keladi, bir choponfurushga shogird tushadi, tikuvchilik qiladi va kechalari ham ishlab birmuncha pul topadi. U shu yili Toshkentning Qashqar mahallasida “usuli jadid” maktabi ochib, o`qituchilik qiladi. U o`qituvchilik faoliyati bilan bog`liq holda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxon o`g`li va uning atrofidagi shogirdlari - jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Same'qori bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Bu haqda Hamza quyidagilarni yozadi: “Muallimlardan: muhtaram Mulla Sobirjon, Shokirjon Rahimiylar... joylari Sebzor dahasida, Taxtapul mahallasida. Muloqotimiz 1910 milodiy 2 o`ktabr... Pirlardan muhtaram ustozli oliy muallim Munavvarqori Abdulmajidxon o`g`li. Adreslari: Eski Toshkand, Shayxvon Tohur, “usuli savtiya” maktabida, mahalla Mehrobodda. Muloqotimiz 1908 milodiy 11 dekabrda. Same'qori afandi. Adreslari: Munavvarqori bila barobar, yoxud “Turkiston” xonasida (“Turkiston kutubxonasi” nashriyoti ko`zda tutilgan - U. D.). Muloqotimiz 1908 yil 11 dekabrda”.

Hamza Hakimzoda Toshkentdagi pedagogik faoliyatida asosan Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Havoyiji diniyya”, “Er yuzi” kabi darsliklari asosida dars bergan. Demak, uning ilk pedagogik faoliyati Toshkentda, jadid pedagoglari davrasida boshlandi. Munavvarqori

boshchiligidagi jadidlar va Hamza aloqalari keyin ham davom etdi. Munavvarqori Farg`ona vodiysidagi jadid maktabdorlarining etakchi namoyandasi sifatida Hamzani Toshkent maktablarida o`tkaziladigan ochiq darslar va imtihon sinovlariga maxsus da'vatnoma bilan taklif qilgan: “Da'vatnoma: Muhtaram janobi oliylarina. Ushbu 1916-nchi yil 7-nchi may (shanba)dan 12-may (payshanba)g`acha har kuni ertalab soat (9)dan kech soat (2)g`acha Tarnovboshi mahallasida Mirhodi Hoji hovlilarida “Namuna” va “Xoniya” maktablarida o`quvchilarning sinov imtihonlari bo`ladur. Siz hurmatludan o`tunub iltimos qilamizki, barcha tavobe'laringiz ila marhamat qilib, zikr etilgan kunlarning har birida imtihon majlisina tashrif buyurib, muallim va shogirdlarni sarafroz buyursalar edi.

Mudir: Munavvarqori.

Muallimlar: Mulla Murodxo`ja, Abdusame'qori, Eshonxo`ja.

Matbaai “Ilhomiya”, Toshkand.

Oxiri: V Kakande. Kn.torg. “g`ayrat”. Muhtaram Hamza afandi Hakimzoda janoblarina topshirulsin”.

Hamza Toshkentda bir yarim yil ishlagach, 1911 yilning sentyabrida Qo`qonga qaytadi va Hojibek guzarida “usuli jadid” maktabi ochadi, unda 30 ga yaqin bolani o`qitadi. Shu yili maktab qoshida katta yoshlilar uchun kechki maktab tashkil qiladi. U bu haqda shunday e`lon yozadi: “Kunduz

kuni o`qumoqqa ojiz o`lub, kechasi o`qumoqqa havaskor o`lan afandilarning murodlari hosil o`lmog`i uchun kechalik maktab ochildi. Mazkur maktabga 16 yoshdan 50 yoshgacha qabul o`lunib, muddat ikki oydan to`rt oyg`a qadar. Xat-savod, hisob tamom chiqarilur hamda arabcha, forsha tillarni ham o`qib, so`zlamogqa muhtoj afandilarni qabul o`lunib mazkur muddatda mumkin qadar bildirilur.

Maktab ochilur kech soat 7 dan 11 gacha.

O`qish boshlanur 1 o`ktabrdan. Hamza”.□

Katta mahnat va ne-ne umidlar bilan bunyod etilgan bu maktab faqat bir yilgina faoliyat ko`rsatdi: undagi yangicha tartib-intizom, o`quv-o`qituv usullari, o`quvchilarning tez savod chiqarishi “usuli qadim”chilarga ma'qul bo`lmadi. Ularning ta'biricha, “qanchalik osonlik bilan savod chiqarsa, shunchalik tez unutilar emish”. Maktabni yopdilar, maktabdorni esa quvqin qildilar.

1912 yilda Hamza haj safariga otlanadi: yarim yil davomida Turkiyaning o`sha vaqtdagi poytaxti Istanbulda yashaydi, undan Arabistonga borib, haj amallarini bajaradi. Makkai mukarramadan Hindistonga keladi. Hamza qaysi mamlakatda bo`lmasin, birinchi navbatda, uning ta'lim-tarbiya, o`quv muassasalari bilan yaqindan tanishadi.

1.2. Hamzaning pedagogik faoliyati

Hamza 1914 yil fevral oyida o'z vatani Qo'qonga qaytadi. U endi pedagogik faoliyat bilan bir qatorda badiiy ijod bilan ham sidqidildan shug'ullanadi. Shu yilning oxirida "Nihoniy" taxallusida bitgan she'rlarini to'plab devon tuzdi. "Devoni Nihoniy" nomini olgan ushbu majmuaga, asosan, shoirning lirik she'rlari kiritilgan.

1914 yilda Hamza dastlab Marg'ilonda, keyin Qo'qonda "usuli jadid" maktabi ochadi. Bu haqda u "Tarjimai holi"da quyidagilarni yozgan edi: "1914 yilning oxirlarida Marg'ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay, Andreev ismindag'i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Qo'qand kelib, yo'qsil bolalar uchun pulsiz o'qish maktabi ochdim... O'zim 4 oycha davom ettirgandan keyin uezd nachalnigi Medinskiy tomonidan tintuv bo'lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog'ozlarim qo'lga tushmagani uchun qamalmay qutuldim".

Bunday ta'qib va taqiqlarga qaramay, Hamza pedagogik faoliyatini to'xtatmaydi, aksincha, katta sa'y-harakat bilan davom ettirdi. Chunki uni bunday olijanob ishda qo'llab-quvvatlovchi, ayniqsa, mahalliy mutaassiblardan himoya qiluvchi fidoyilar, hammaslaklar ham bor edi. Atoqli pedagog, xalq qozisi Ishoqxon Ibrat Hamza bilan yaqin munosabatda bo'lgan, uning 1914 yilda Marg'ilonda ochgan maktabini borib ko'rgan,

mamnuniyat bilan ma'qullagan. Bu haqda u quyidagilarni yozadi: “O`zim mushohada qildimki, bizni(ng) taraqqiyotda “usuli savtiya” maktabi joriy bo`ldi. Bunga ko`b ulamolar qarshi bo`lub, oxiri Marg`inonda bir “usuli jadid” muallimi (Hamza) ila ulamo munoqasha qilganda, bechora muallim: “Men ta'lim qiladurgon ilmlarimni huzuri qozi siezd majlisida imtihon etay, shar'iy, noshar'iyiligini menga ko`rsatsunlar”, - siezdga shogirdlari ila kelib dediki: “Ey ulamoyi ahli islom va qozizoda! Necha muddatdan buyon avlodlaringizni ta'lim va odobda tarbiyatidaman. Ammo ba'zi kishilar menga yaxshi nazar ila boqmay, balki intiqom yo`lida so`z ayturlar. Bu men o`qutadurgon ilmlarimni sizlarga huzuringizda ko`rsatib, agar durust shar'iy bo`lsa, menga bu ilm durustdur deb hukm qilib, qo`limga hujjat beringlar, agar noshar'iy yoki avlodlaringiz ilmida buzuvq ilmlar bo`lsa, meni man' qilinglar”, - deb o`qitadurgon nazofa va shifohiya darslarini keltirib, shogridlarini biyron-biyron savol va javobga tutdi”. □

1915 yilda Hamza taraqqiyparvar yoshlar bilan “g`ayrat” kutubxonasini tashkil qildi. Bu kutubxonaning asosiy maqsadi yangi ochilayotgan jadid maktablarini darsliklar va o`quv qo`llanmalari bilan ta'minlash hamda darsliklar nashr etish edi. Shu yili Hamza boshchiligida “Jamiyati hayriya” tuzildi. Ushbu jamiyat “usuli jadid” maktablari uchun quyidagi darsliklarni sotib oldi: “Havoyiji diniyya”, “Adibi avval” - 6 dona,

“Adibi soniy” - 10 dona, “Adabiyot”, “Shifohiya”, “Tajvid”, “Badrulhisob”, “Tahsisul alifbo” - 9 dona. Ushbu kitoblar Hamzanig etim-esirlar uchun ochgan “Dorul-aytom” (“Etimlar uyi”) maktabi bolalariga berilgan. Bulardan tashqari, “g`ayrat” kutubxonasida Saidrasul Saidaziziyning “Ustodi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, Rustambek Yusufbek hoji o`g`lining “Talimi avval”, Munavvarqorinnig “Er yuzi” darsliklari bir necha nusxadan bo`lgan.

II BOB. HAMZANING IJODIY MEROSI

2.1. Hamza yaratgan darsliklar

Yangi ochilayotgan “usuli jadid” maktablari uchun darslik va qoʻllanmalar nihoyatda zarur edi. Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar tomonidan yaratilgan darsliklar Turkiston miqyosidagi maktablar uchun nihoyatda kamlik qilar edi. Buning ustiga “usuli qadim” maktablar ham asta-sekin jadid maktablari uchun yaratilgan darsliklardan foydalanishga oʻta boshlagan edilar. Bulardan tashqari, necha asrlardan buyon maktablarda qoʻllanib kelinayotgan kitoblar yangi davr yoshlarini tarbiyalashga, keng koʻlamda fikrlovchi, millat, Vatan jarohatlariga malham boʻluvchi, XX asr ilm-fan, texnikasidan xabardor yoshlarni kurash maydoniga olib chiqishga qodir emas edi. Buning uchun yoshlarni yaramas odatlardan, axloqiy tubanlikka, fojiali natijalarga olib boruvchi turli-tuman koʻngil xushi oʻyinlardan muhofaza qilish, shu bilan birga, axloqiy poklikka etaklash kerak edi. Mana shu ehtiyoj natijasi oʻlaroq Hamzaning “Engil adabiyot”, “Oʻqish kitobi”, “Qiroat kitobi” va “Milliy ashulalar uchun milliy sheʼrlar majmuasi” asarlari vujudga keldi. “Usuli qadim” maktablarida oʻqitiladigan kitoblar tilining murakkabligi, buning ustiga, ular arab va fors tilida yozilganligi, murgʻak bolalar aql-idrokidan nihoyatda yiroqligi Hamzani bolalarbop, ularni qiziqtiradigan, ruhiyatiga

hamohang darsliklar yozishga da'vat etdi. Bu haqda “Engil adabiyot” darsligining muqaddimisinde quyidagilarni yozadi: “Hozirgi o`qulub turgan adabiyotlarimiz o`quvchilarg`a og`ur bo`lmasa hamki, yosh talabalarimizg`a ba'zi lug`atlarining mafhumini og`urlik qilub turganligi shoyad boshqa har bir muallimlarga-da tajriba bo`lgandur. Demak, u adabiyotlarga oldingina hozirlamak uchun ochuq ma'noli qilib hamda 1-nchi sinfga tayyorladik. Toki haftada bir darsdangina ta'lim o`lunib borilsa, shoyad 2-sinfga (2-yilda) ko`chgandagi o`qulajak adabiyotlarga yordamchi bo`la olur edi”.

Hamzaning pedagogik faoliyati, u tomonidan ochilgan “usuli jadid” maktablari mustamlakachi ma'murlar - Qo`qon uezdi boshlig`i Medinskiy, Farg`ona xalq maktablari noziri Andreev kabi kimsalarning keskin qarshiligiga uchraganidek, uning darsliklari ham senzuraning “ming bir chiyrig`i”dan o`ta olmagan. Bizgacha uning “Engil adabiyot”, “O`qish kitobi”, “Qiroat kitobi” darsliklari qo`lyozma holida etib kelgan.

“Engil adabiyot” darsligining muqaddimasida aytilgan yuqoridagi so`zlardan ma'lum bo`ladiki, muallif ibtidoiy maktablarning birinchi sinfida “Alifbo”ni o`rganib, savodlari chiqqandan so`ng ushbu darslikni tavsiya etadi. Darslik 1914 yilda yozib tugatilgan bo`lib, matnlar 45 darsga

bo`lingan, matnlarning hammasi nazmda va darsdan darsga o`tgan sari ular hajman kattalashib, mazmunan murakkablashib boradi.

Hamzaning “Engil adabiyot” darsligining o`ziga xos fazilati shundaki, unda insoniy go`zal xulqlar, shu bilan birga, insonni qabohatga, tubanlikka olib boruvchi xususiyatlar ko`proq badiiy shaklda, o`quvchilar ruhiga kuchli ta'sir qiluvchi san'atkorona uslubda beriladi. Uning 1-4-darsi Olloh ta'rif-tavsifiga, 5-darsi payg`ambarimiz Muhammad Mustafoga bag`ishlanadi, undan keyingi darslar matnlari maktab, ilm, o`qishning inson hayotidagi ahamiyati, to`g`rilik, rahmdillik kabi masalalar ancha mo`ljaz she'rlarda ifodalanadi. Hamza san'atkor shoir sifatida yosh o`quvchilar ruhiy olamiga kirib boradi, asardagi kichik-kichik manzumalar shunday yaratilganki, dars davomida o`quvchilar oddiy kuzatuvchi-o`quvchi va tinglovchi emas, balki asarda faol ishtirok etuvi, ya'ni yaxshilikni idrok etadi va tasdiqlaydi, yomonlikni tushunib etadi va inkor etadi. Darslikda “Ota nasihatining natijasi” nomli kichik manzuma berilgan, nihoyatda bolalarbop, shu bilan birga, bolalar ruhiga kuchli ta'sir etish qudratiga ega. Manzuma uch darsga mo`ljallangan. Uning syujeti shunday, ota yolg`iz o`g`liga shunday nasihat qiladi:

“- Qolma begona uyida hech kech,

So`ylama yolg`onni gar kelsa qilich”.

Necha yillar o`g`il ushbu nasihatga amal qiladi. Bir kuni u o`rtog`i bilan bir begonaning uyiga mehmonga boradi va birinchi bor otasining nasihatiga zid holda begona odamning uyida yotib qoladi. Shu kecha fojia sodir bo`ladi: uy egasining bir dushmani bo`lib, o`sha kechasi uni o`ldirgani keladi. Kechasi hovliga tahorat uchun chiqqan o`rtog`ini uy egasi deb o`ldiradi. Uy egasi bu voqeadan xabar topib, begunoh mehmonni podshoh hukmiga topshiradi va butun aybni unga to`nkaydi. Adolatli vazir bo`lgan voqeani oxirigacha tekshirib, aybsiz yigitni (mehmonni) ozod qiladi va tuhmatchi uy egasini o`limga hukm qiladi. Manzuma oxirida muallif qissadan shunday hissa chiqaradi:

Hissa: har kim otasin so`zin tutar,

Dunyodan ayshu farog`atda o`tar.

Hamza bolalarning bo`sh vaqtlarini ko`ngilli o`tkazishlariga, qimorbozlikka olib keluvchi turli-tuman o`yinlardan saqlanishga, katta e'tibor beradi. Shu ma'noda dasrlikdagi "Qimorning boshi" manzumasi alohida ahamiyatga ega. Hoshim ismli bola o`qish, ilm olish o`rniga yoshligidan "to`p-tosh", "jupmi-toq", "oryol", "oshiq" kabi qimorbozlikka olib boruvchi o`yinlarga beriladi. Bir oz yutganidan xursand bo`lib, hatto kechalari uyquasi kelmaydi, oxir-oqibatda qimorboz bo`lib, bud-shudidan, uy-joyidan ham ayriladi. Sakkiz baytdangina iborat bo`lgan ushbu

manzumaning ikki bayti qissadan hissa sifatida shunday pand-nasihat xulosa bilan yakunlanadi:

Hissa: har kim o`ynadi to`p-toshini,

Shubhasiz, tutdi qimorni(ng) boshini.

Bo`lmasun, o`g`lon, o`yun to`p-toshingiz,

Bo`lg`usi sarson Hoshimdek boshingiz.

Bola tarbiyasida ota-onaning o`rni alohida. Shuning uchun ham mutafakkirlar, pedagoglar ota-onalar bilan bolalar munosabatlariga axloqiy tarbiyannig o`ta muhim va nozik jihati sifatida qaraganlar. Hamza ota-onani hurmat qilishni bolaning eng yuksak ijobiy fazilati deb hisoblaydi. Muallifning “Ul aqllik bola atosini ham qilgan tarbiya va shafqatlarin yod etub degan so`zlari” sarlavhali uchinchi, “Ul aqllik bolaning mushfiq onasi uchun-da qilgan tashakkurlari” sarlavhali to`rtinchi va “Bolaning yomon bo`lmog`iga sabab bo`lgan onaning jazosi” sarlavhali oltinchi darslarda ota-onaning farzand oldidagi katta burchi manzumaning asosiy pafosini belgilaydi. Hamza farzandning yomon yo`llarga kirib ketishida ham ko`p hollarda ota-onalar sababchi bo`lishlarini ta'kidlaydi:

“Kichiklikdan o`lub odat ishim,

O`g`rilik o`lmishdi mani qilmishim.

Kelsam o`g`irlab nima narsa onam,

“Yaxshi qilibsani, - der edi, - jon bolam”.

Demadi bir bor onam “To`g`ri bo`l!”

Shunday anoning o`la jazosi shul”.

Barcha bu ish ma'nisini bildilar,

Avval ano, so`ng o`zin osdirdilar.

Hissa: kimning o`g`li yomon, yo`q ajab,

Bo`lgay anga ota, anosi sabab.

Hamza XX asr boshlarida mustamlaka Turkiston bolalarining baxtsiz qismati, xalqining nochor ahvoli, achchiq turmushi haqida o`ylar ekan, bularning asl sababi ilmsizlikdan, jaholatdan deb bildi: “Bu xo`rliklarning ilmsizlikdan kelganin shoyad o`ylagan va aqlga solub qaragan kishi bilur”, - deydi Hamza. U “O`qish kitobi” darsligida hamma orzu-umidlarning ro`yobga chiqishining bosh yo`li ilm-ma'rifatni egallashdir, degan g`oyani bolalar ongiga singdirishni o`z oldiga qo`ygan. Bunga esa faqat maktab orqaligina erishish mumkin:

Olaming xurshidi kundir, odaming xurshidi ilm,

Olaming zulmoti tundir, odaming nodor ilm.

Har muroding, maqsadingga etmoq istarsan, murod,

Ko`z ochub bedor bo`l: darkor ilm, darkor ilm.

Har taraqqiy aylagan millat eliga sol quloq,

Kecha-kunduz soʻzlari afkor ilm, afkor ilm.

Ul haqiqat oyinigʻa sayqal istarsan, Nihon,

Ilm ista, ilm ista, istagʻil zinhor ilm.

Hamza bolalar hayotini, xatti-harakatini, ruhiyatini juda yaxshi bilgan.

Bu hol uning sheʼrlarida, bolalarga xos soʻzlar, uslub tanlashida koʻzga tashlanadi. “Engil adabiyot” darsligining “Bir aqlli maktab bolasining oʻz-oʻzicha domlasining qilgan tarbiyalari yodiga tushib, fikrlanub degan soʻzlari” sarlavhali 2-darsida bolaning nutqi vositasida muallim timsolini chizadi. Hamza orzu qilgan oʻqituvchi bola tilidan shunday taʼriflanadi:

Bizga haq bergan ulugʻ neʼmat erur ustodimiz,

Koʻzimiz nuri, tanimiz jonidur ustodimiz.

Oʻylasak, bizni erurlar chin atomiz shul kishi,

Chunki bizga bilmaganni bildirur ustodimiz.

Maktaba kelgonimizda, bilmas erduk hech nima,

Munchalik oʻrgatdilar yozmoqni, koʻr, ustodimiz.

Hamza “Engil adabiyot”, “Oʻqish kitobi” darsliklarida masal janridan keng foydalangan. Masalga xos majoziy timsollarda - hayvonlar, qushlar va boshqa jonivorlar vositasida voqea-hodisalar tasvirlanadi. Masallarning deyarli hammasida ikki qutb - yaxshilik va yomonlik, doʻstparvarlik va hudbinlik, mehr-shafqat va zolimlik shu xususiyatlarga xos jonivorlar

qiyofasida tasvirlanadi. Masal hayotni tasvirlashda nihoyatda ixcham va ayniqsa beozor janr hisoblanadi, unda, albatta, “qissadan hissa” chiqarib, bolalar odobiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu didaktikaning o'ziga xos asosiy belgisidir. Shu ma'noda “O'qish kitobi”dan joy olgan mashhur “Toshbaqa birla Chayon” masalaining berilishi e'tiborga loyiq. Asarning mazmuni hammamizga ma'lum. Hamza masalni darslik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ancha ixchamlashtirgan, she'riy shaklga keltirgan, natijada ta'sir kuchi oshgan. Ushbu masal variantlari mashhur hind eposi “Kalila va Dimna”da, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” va Hamzaning yaqin salaflaridan Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida berilgan. Bulardan tashqari, “Toshbaqa bilan Chayon” masali xalq og'zaki ijodida ham mavjud. Albatta, Hamza bu variantlardan xabardor bo'lgan. Ushbu masalda Hamza o'quvchilarni Toshbaqa kabi do'stni qadrllovchi, rahmdil, kishilarga yaxshilik qiluvchi odamlardan ibrat olishni, Chayon kabi yaxshilikka yomonlik qiluvchi, to'g'ri kelgan kishiga ozor beruvchi chayonsifat kishilardan uzoq bo'lishni uqtiradi. Asardan kelib chiqadigan hissa (Gulxaniyda) “aslni xatosi bo'lmas, nokasni atosi”, Hamzada esa ancha sodda, o'quvchilar ruhiyatiga yaqin:

Hissa: kim g'ayrni ulfat edar,

O'z-o'zicha boshiga kulfat edar.

Hamzaning yana bir jiddiy darsligi “Qiroat kitobi”dir. Asar muallifi ta'kidlaganidek, darslik “bir necha juz”dan iborat. Asar tugallangan emas, faqat bir juz'igina mavjud, 1915 yilda yozilgan, nashr qilingan emas. Darslik muallifi o`z oldiga pedagogikaning nazariy masalalarini - axloq kategoriyalarini bolalarbop qilib tushuntirish vazifasini qo`ygan. Asar mohiyat e'tiboriga ko`ra Shayx Sa'diyning “Guliston” asariga, yanada aniqrog`i “Guliston” ta'sirida bitilgan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asariga o`xshab ketadi, shu bilan birga, farqli jihatlari ham anchagina. Hamza Avloniy kabi inson axloqini ikki qismga: “biri axloqi husniya, ikkinchisi axloqi zamima (yomon xulqlar)”ga bo`ladi. “Axloqi husniya, - deb yozadi u, - insoniyat olamining bir gulshanidurki, anda hayo, hilm, saxo, qanoat, rizo, shukr, sabr, tavba, sidq, tavoze', ajz, faqrga o`xshash adolat gullari bila muzayyan va muattar o`lur. Axloqi zamima bir sho`razoredurki, oni aksincha, jafo, zulm hasad, kibr, kufr, tama', g`azb, nifoq, g`asb, namima, kizb, bo`hton, g`iybat, buxl, xiyonat, isrof, hirs, poyriq, ta'jil, fitna hosil bunga o`xshash turli qabohat nimarsalardan boshqa shaylar ko`karmas. Mana, emdi sizlarga mundan buyon har bir yomon va yaxshi xulqlarni bayon qilib o`tarmiz”.

Hamza ushbu darsligida o`zining ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy qarashlaridan kelib chiqqan holda insondagi barcha go`zal xulqlarni uning

ilm-ma'rifatni qay darajada egallaganligi bilan o`lchaydi. Axloqi zamimaga mansub kishilarni ilm-ma'rifatdan yuz o`giran, jaholatga botgan kishilar deb biladi. Asarda har bir axloqiy kategoriya uchun nazariy fikrdan keyin alohida, o`quvchilar ruhiyatiga mos hikoya va hai bir mavzuning mohiyatini ifodalovchi bir bayt she'r keltiradi. Masalan, sidq - to`g`ri so`z haqida gapirishdan oldin chiroyli bir bayt keltiradi:

To`g`ri so`zla, ey o`g`il, til burmag`il yolg`ong`a hech,

Bir masal bor: to`g`ri so`zlar boshini kesmas qilich.

To`g`ri so`zlamonqning ahamiyati haqidagi nazariy fikrlarni aytib bo`lgandan keyin mavzuga mos hikoya keltiradi. Ushbu hikoya muallifning nazariy fikrlarini o`quvchilar ko`zi oldida yorqin namoyon qilish uchun ko`rgazmali vosita vazifasini bajaradi.

Hamza zulmning yomon oqibatlari haqida shunday hikoya keltiradi: ulug` kitoblarning ishonchli so`zicha, payg`ambarlarimizdan Yusuf alayhissalom yoshlik vaqtlarida otalari hazrati Yaqub alayhissalom bilan bir ko`chadan o`tib ketayotganlarida, devorning teshigidan chumchuq bolalarining chirqillagan ovozi eshitiladi. Hazrati Yusuf alayhissalom otalaridan tez chumchuq bolasini olib berishni so`raydilar. Hazrati Yaqub alayha hazrati Yusuf alayhissalomni qattiq suyganlaridan chumchuq otasining har qancha iltijosiga qaramay, bolasini olib berdilar. Hazrati

Yusuf chumchuq bolasini etti kun o`ynaganlaridan so`ng bir kishi chumchuq bolasini olib, o`z uyasiga eltib qo`yadi. Vaqtlar o`tib, Yusuf alayhissalom voyaga etadilar va o`gay og`alari tomonidan qul qilib sotilib, Misr shahrida bir podshohning Zulayho ismli xotini makri bilan etti yil zindonda qamalib yotadilar. Ikkinchi tarafda otalari hazrati Yaqub alayhissalom o`g`illari Yusuf alayha firoqida yig`layverib ko`zlari ko`r bo`ladi. Agar hazrati Yaqub chumchuqning betoqatligini afzal ko`rib, unga etti kun zulm qilmaganlarida edi, o`g`illari hazrati Yusuf etti yil zindonda azob chekmas, o`zlari etti yil muttasil yig`lab, ko`zlari ko`r bo`lmas edi.

Bu hikoyani eshitgan va o`qigan har bir o`quvchi zinhor-bazinhor oyoq ostidagi chumoliga ham zulm qilmoqdan qo`l tortadi.

Hamza zulm haqidagi ushbu hikoyani keyingi mavzu “Rahm” bilan bog`laydi va “Rahm” mavzuiga mos shunday bayt keltiradi:

Rahmdil kim o`ldi - ul mard xudo,

Dohil o`lgay tong-la jannat ul-a'lo.

“Qiroat kitobi” va undagi hikoyalar, aforistik baytlar Hamzaning pedagogik qarashlarini o`rganishda muhim manba bo`lib xizmat qiladi. Bu asar orqali yana shunday xulosaga kelish mumkinki, Hamza maktabda bolalarni faqat savodli qilish, ularga hisobdan to`rt amalni o`rgatish

vazifasinigina qo`ygan emas, u barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazish vazifasini qo`ygan.

Uchala darslikda berilgan matnlarning deyarli hammasi Hamza tomonidan yozilgan. Muallif darsliklarning metodik jihatlariga ham katta ahamiyat beradi, o`quvchilarning qabul qilish darajasini, matnlarning og`ir va engilligi, hajmi, ularni o`quvchilar ongiga etkazish kabi masalalar muallif e'tibor markazida bo`lgan. Birinchi sinf uchun yaratilgan "Engil adabiyot"dagi matnlarning yanada soddaligini ta'minlash uchun ko`proq barmoq vaznidan foydalangan, 31-darsdan boshlab matnlar aruz vaznining eng engil bahrlarida beriladi. Ba'zi bir hajman katta she'rlar, masalan, ilm-ma'rifatning buyuk ahamiyatiga va johillik tanqidiga bag`ishlangan she'r 128 misrani (64 misra ilm-ma'rifatni ulug`lashga, 64 misra jaholatni qoralashga bag`ishlangan) tashkil qilib, 8 darsga 16 misradan mutanosib bo`lingan. Muallif ko`p o`rinlarda axloqiy kategoriyalarni bolalar ongiga etkazishda kontrast - qarama-qarshi qo`yish usulidan juda o`rinli foydalanadi.

9 darsdan iborat bo`lgan va "Engil adabiyot"dan keyin qo`llashga mo`ljallangan "O`qish kitobi" darsligidagi matnlar hajman ancha kattalashgan, mazmunan ancha murakkablashgan, she'rlarning hammasi aruz vaznida bitilgan, ba'zi hollarda o`quvchilar e'tiborini mustaqil ravishda

“qissadan hissa” chiqarishga qaratadi. “O`qish kitobi”dagi ba'zi matnlarning tugallangan fikrlarni ifodalashi (“Qalam”, “O`quv”, “Kitob”, “Ilm”, “Maktabdan” radifli she'rlar), ba'zi bir she'riy manzumalarning hajman kattaligi (“Bir kishini(ng) bor edi to`rt bolasi...” deb boshlanuvchi, “Maktabda o`quvchi ziyrak Qosimning ahmoq Valiga javobi” kabi) shuni ko`rsatadiki, bu darslik faqat 9 dars uchun emas, ko`proq darsga mo`ljallangan, ammo muallif ularni darslarga mutanosib bo`lishga ulgurmagan ko`rinadi.

Hamza “Qiroat kitobi” darsligining metodik tuzilishiga, bolalarbop matnlar tanlash va ularni nihoyatda sodda, jonli, obrazli ifodalar vositasida tasvirlashga alohida e'tibor bergan. Unda Sharq nasriga xos saj'dan - qofiyalashgan nasrdan keng foydalangan.

Hamza ijodida ajoyib she'riy guldastalari “Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi” nomi bilan mashhur bo`lgan. Bu umumiy nom ostida 7 she'riy to`plamga 1915-1917 yillarda yaratgan she'rlari kiritilgan. Ular: “Atir gul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Safsar gul”. Bu to`plamlarda, asosan, millatning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg`otish, ilm-ma'rifatga, yangi maktablar ochishga da'vat etish g`oyasi etakchilik qiladi:

Bu Nihon qon yig`layur millat uchun laylu nahor,

Yoz o`tab, qish keldi holo, bizga bo`lgan yo`q bahor,

Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,

Chora shul: maktab ochaylik, shoyad o`lsun sabzalar,

Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?

Millata shavkat, taraqqiy, sha'nu davron istariz?

Abdulla Avloniy kabi Hamza “Quloq no`talari ila eshitilib kelmish milliy tabarruk ashulalarmizning o`rni yo`qolmasun uchun ba'zi qabih she'rlar o`rniga” milliy ruh, millatnig istiqlool haqidagi orzu-intilishlarini ifodalovchi so`zlar bilan bu xalq kuylarini muzayyan qilish, bu bilan millatni uyg`otish vazifasini o`z oldiga qo`ydi. Hamza milliy istiqlool g`oyalarini musiqa, xalq kuylari vositasida, qo`shiqlar shaklida o`quvchilar qalbiga tezroq va ta'sirliroq kirib borishi mumkinligini yaxshi tushungan. O`zbek adabiyotida sharqiyalarning yaratilishi ham ko`proq Hamza va Abdulla Avloniyilar faoliyati bilan bog`lanadi. Hamza Hakimzoda musiqa sohasida ham katta qobiliyat sohibi, bastakor edi. Shu ma'noda Hamzaning ushbu to`plamlari A. Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she'rlar” to`plamlariga hamohangdir. Avloniy va Hamzaning to`plamlari “usuli jadid” maktablarining ifodali o`qish, ashula darslarida qo`llangan.

O`zbek ijodkorlari qatori Hamza dunyoqarashining takomilida jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek Gasprali va uning

“Tarjimon” gazetasining roli katta boʻlgan. 1914 yil 11 sentyabrda Gasprali vafoti munosabati bilan Hamza oʻzining bu musibatli voqeaga hamdardligini bildirib, “Yavmul vafot” (“Sadoyi Fargʻona”, 1914 yil 24 sentyabr) maqolasini va “Marsiya” (“Sadoyi Fargʻona”, 1914 yil 28 sentyabr) she'rini e'lon qildi. She'rda shunday misralar bor:

Oh, millat, etdi bu dam qaygʻulik, gʻamlilik zamon,

Tegdi ogʻzingga halokat toshi, emdi toʻla qon,

Dod qil davri falakdan, botdi xurshidi jahon,

Motam ayla, ogʻlasun ahvolinga har insu jon.

Koʻk sari uchdi Masiho jismlar jondan judo,

Ya'ni takror taraqqiy murgʻi shabxondan judo.

Hamza oʻz faoliyatini jadid matbuoti bilan mustahkam bogʻladi. Uning “Faqirlik nimadan hosil oʻlur?”, “Bid'atmi, majusiyatmi?”, “Muallim afandilarimizga ulugʻ rijomiz”, “Maktabi dorul-aytom”, “Iydi qurbon”, “E'tiroz” kabi maqolalari “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Fargʻona” gazetalarida bosildi. Ushbu maqolalarda millatni yaramas illatlardan, faqirlikdan, xurofotdan qutqaruvchi birdan-bir yoʻl - ilm-ma'rifat gʻoyasi ilgari suriladi va boyu kambagʻal, ziyoliyu shariat-din peshvolari qoʻlni-qoʻlga berib, yangi “usuli jadid” maktablariga koʻmak berishga da'vat etadi. Hamza milliy ayirmalarga, sinfiy tabaqalanishlarga keskin qarshi chiqadi,

uningcha, faqat birlik bilangina millatni jaholat botqog`idan, qoloqlikdan, turg`unlikdan, istibdod qulligidan qutqarish mumkin. Bu haqda “Maktabi dorul-aytom” maqolasida muallif yozadi: “Demak, bu “Dorul-aytom”da Xo`qandning har tarafidan o`lsun faqir bolalarni, shubhasiz, qabul qilinadur. Faqat daftar, qalamdan boshqa kitoblarg`acha hatto maktabdan beriladur. Yuqoridagi iona qiluvchi afandilarimizg`a qiyosan faqir va etim bolalarg`a rahm va shafqatlari bori Xudo va Rasuldan va millatning rizolig`i birlan dunyo va oxirat saodatlarig`a havaskordan qarindoshlarimizg`a bu to`g`rida naqadar iona va muruvvat ko`rguzmoqlarini rijo va niyoz qilurmiz. Hamda har oyda ehsonlarini jamlab, xoh oz, xoh ko`p bu etim bolalarin maktab mudiriga bersalar, naqadar bolalarni ilmu ma'rifatg`a etishmoqig`a eng birinchi shafqatlu ota-onalaridan bo`lur edilar... Diyonatlik ba'zi ahboblarimiz har oyning oxirida yuboradurg`on oqchalarini yozdurub qoldurg`onlarig`a manda alarg`a chin qalbim ila tashakkurimni gazeta orqali e'lon qilub, va'dalarinida yozub o`tuvni munosib ko`raman”.

Ushbu maqola mazmunidan ko`rinib turganidek, Hamza 1914 yilda Qo`qonnnig “Shayxul-islom” mahallasida etim bolalar uchun “Dorul aytom” (“Etimlar uyi”) maktabi ochgani, maktab oldida turgan vazifalar haqida fikr yuritadi. Ushbu maktabda o`quvchilar nafaqat bepul o`qitilgan, ular hatto hamma o`quv qurollari bilan ham maktab tomonidan

ta'minlanganlar. Shuning uchun ham Hamza millatdoshlarini bu maktabga iqtisodiy yordam berishga da'vat etgan. Hamzaning pedagogik faoliyati mustamlaka ma'murlarining qattiq ta'qib va tazyiqlariga qarshi kurashlar jarayonida kechdi.

2.2. Hamzaning badiiy ijodi

Gazeta va jurnallarga maqolalar yozib, qalami ancha charxlangan, turk, tatar hamda rus adabiyotidan ancha xabardor Hamza o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi tur - nasrga qo'l urdi, "Milliy ro'mon" deb nomlangan "Yangi saodat" asarini 1915 yilda toshbosmada "Madora" kutubxonasi noshirligida bosmadan chiqardi. Romanga ushbu bayt epigraf qilib olingan:

O`qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,

Tilingi jahldan qutqar, g`ami millat bila o`tgil.

Ushbu asarda Hamzaning etuk maorifparvarligi yana bir bor namoyon bo'ldi. Asarda Abdulqahhor ismli ancha katta savdogar boy "dunyo ham oxiratning saodati" bo'lmish ilm-ma'rifatni egallash o'niga ichkilik, qimor kabi qabih ishlarga berilib ketadi va butun mol-dunyasini barbod qiladi. Oqila xotini Maryam har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o'z umrini o'g'li olti yoshli Olimjonni, uch yoshli qizi Xadichani tarbiyalashga bag'ishlaydi: Olimjonni "usuli jadid" maktabida o'qitadi. O'z odobi, ilmga chanqoqligi

bilan Olimjon jadid muallimining mehrini qozonadi. Muallim unga otalarcha mehr-muruvvat ko`rsatadi. U voyaga etgach, singlisi Xadichani ham o`qitadi va yaqin maktabdosh do`sti o`qimishli Ahmadjonga uzatadi. Darbadarlikka duchor bo`lgan otasi Abdulqahhorni yana o`z oilasiga qaytaradi, ilm-ma'rifatli Olimjon oilasini yangi saodatga musharraf etadi.

Muallifning romandan ko`zlagan asosiy maqsadi millatni “jaholat va g`aflat zindoni”dan “dunyoning haqiqiy xurshidi va mohitobi” ma'rifat gulzoriga etaklashdir. Bunga erishishning birinchi omili insonlarda ilm-ma'rifatga rag`bat, muhabbat uyg`otish bo`lsa, ikkinchisi o`quv muassasalarini davr talablari asosida tubdan o`zgartirish zaruratidir. Chunki mavjud eski maktablar yoshlarni o`qishdan bezdiradi. Mana, asar muallifi orzu qilgan ilm maskani - maktab: “Olimjon, oh, bu qandog` joy? Taning rohat oladi. Bu dunyoning bog`chasi va jannati desang ham rostdur. Mana, qandog` oq uylar. Qandog` pokiza kursilar, bular yozmoq uchun kerakli doskalar, hisobga cho`tlar, tomosha qilmoqqa chiroylik xaritalar. Bular hammasi ilm o`rganmoq uchungina hozirlangan. Manna, ilm qandog` aziz ne'mat. Dunyoda ilmdan ortiq ham lazzatli, shirin ne'mat bormi? Yo`q, albatta. Mana, ilm o`qiydurgon kishilar shoh, gado, boy, faqir bo`lsun, mundaq ulug` joy hammasiga ham barobardir”.

Hamza “Yangi saodat” asarida yana bir muhim masalaga - xalq ongiga singib ketgan “xudo bersa bo`ladi-da” degan e`tiqod (buni Hamza “fasod e`tiqodlar” jumlasiga kiritadi - U. D.)ga e`tiborni qaratadi. Mutaassiblar tomonidan singdirilgan bu e`tiqodga asosan odamlar, “bersang eyman, ursang o`laman” qabilida ish tutib, o`zlarida hech bir harakat bo`lmaydi. Muallif bunday asossiz e`tiqodni keskin fosh etadi: “Xudo bersa bo`ladi-da, degan johil ota-bobolarimizning asossiz so`z va fasod e`tiqodlaridir. Xudo zolim emas, birovga berib, birovga bermay qo`ymas. Xudoyi taborak va taolo saodat - ilmda, razolat - jaholatda, har bir ish bandaning o`z harakatiga muvofiq, deb o`z kalomida takror xabar bergan”.

Asarda Abdulqahhorning johilligi tufayli katta mashaqqatlarga yuz tutgan oila ahvolini, miskin, g`arib Olimjon ruhiyatini tasvirlashda Hamza sentimental uslub bo`yoqlaridan ancha keng foydalangan.

Shu bilan birga, asrning ko`p o`rinlarida muallif lirik chekinishlardan ancha o`rinli foydalangan. Bu bilan asarning o`ta ta'sirchanligiga erishgan. Shuning uchun “Al-isloh” jurnalida e`lon qilingan “Yangi saodat” romani haqidagi taqrizda asarning ta'sirchanligiga alohida e`tiborni qaratadi: “Yangi saodat” ismli 46 sahifali turkiy va Turkiston shevasinda bir milliy ro`monning yangidan tab' bo`lub, nashr qilinuvi bizni ko`p masrur etdi. Xalqni o`quv va yozuv tarafig`a targ`ib qilmoq uchun hozirgacha Turkiston

shevasinda buningdek ta'sirli ro`mon nashr o`linmamish, desak mubolag`a bo`lmasa kerak. Bu ro`monning muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy janoblari va noshiri “Madora” kutubxonasidir”.□

“Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi”ga kirgan “Birinchi bo`lim” to`plamida “Dilog`on” ohangi bilan aytiluvchi “Ko`zni oching, qardoshlar!” she'rida shunday misralar bor:

Tashlab Nihon ko`ngilda bo`lgan illatni,
Kinu buzg`u adovat, fisqu g`iybatni,
Sunnii, shiiy so`zlarni barbodlashaylik,
Millat yo`lin ko`plashib obobdlashaylik.
Ulfatlashib yozlashub ham qishlashaylik.
Teatr yasab, konsertlar, olqishlashaylik.

1915 yilda nashrga tayyorlangan ushbu to`plamdan joy olgan yuqoridagi misralar Hamzaning sahna san'atiga alohida ahamiyat berganligini ko`rsatadi. Hamza 1915 yildan faoliyat ko`rsatgan Qo`qon teatr truppasi uchun sahna asarlari - dramalar yozishga alohida e'tibor bergan. 1915 yilda yozgan “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi Hamzaning bu sohadagi birinchi qadami bo`ldi. Ushbu dramadan keyin u “O`ch”, “Muxtoriyat yoki avtonomiya” (1917), “Kim to`g`ri?”, “Boy ila xizmatchi” (1918) kabi dramalarini yaratdi.

Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi bevosita jadid ma'rifatparvarligi ruhida yozilgan bo'lib, “Yangi saodat” “milliy roman”idagi g'oya etakchilik qiladi. “Yangi saodat”da ilmsizlik, jaholat tufayli parokanda bo'lgan Abdulqahhor oilasini yosh Olijon ilm-ma'rifat orqali saodatli qiladi. Dramada esa jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma'rifat, taraqqiyot fidoiylari Mahmudxon va Maryamxonlarni fojeaga olib keladi. Ushbu 4 pardali fojia 1915 yilda yozilib, 1916 yilda Toshkentda “Matbaai g'ulomiya”da jadid ma'rifatchisi, Hamzaning yaqin do'sti savdogar boy Saidnosir Abdulhay o'g'li Mirjalilov (1884-1938) noshirligida bosmadan chiqqan. Muallif asarning janrini “Turkiston maishatidan qiz va kuyov fojiasi” deb belgilaydi.

Asarning bosh qahramonlari Maryamxon va Mahmudxonlar - zamonasining ilg'or ziyolilari. Ular millat farzandlarini ilm-ma'rifatli qilishdek ulug' orzular og'ushida romantik xayollar bilan yashaydilar, ularning sevgisi ham nihoyatda pokiza va samimiydir. Dramaturg asarda ayniqsa Maryam obraziga alohida e'tiborni qaratadi, uning butun qarashlari Mahmud obrazidan ko'ra Maryam qiyofasida namoyon bo'ladi. To'g'ri, Maryamxonning bu darajaga etishida Mahmudxonning xizmatlari katta, ilm-ma'rifat yo'liga olib chiqqan ham Mahmudxondir. Mana, Maryamxonning hayotdagi maqsadi, hayotining bosh maslagi: “...afandim,

emdi tezdin ijti'od etingizkim, ikkovimiz qo'limizni tutushib, zulmatda qolmish bu millatni, siz quyoshi bo'ling-da, men mohitoboni bo'lib, qorong'u vatanni yorutaylik; siz-da erlarimizning holindan, ban mazluma oilalarimizning holindan g'azetalarga yozishib, bir-birlarimizni ogohlashtiraylik. Chin maqsadimiz bo'lgan qizlar makatabi ochaylik".

Hamza pedagogik asarlarida o'zining maorifparvarlik, ma'rifatparvarlik qarashlarini ko'proq didaktik usullarda ifodalagan bo'lsa, drama va "milliy roman"ida badiiy timsollar vositasida o'quvchilarga taqdim etadi.

1917 yilda Hamza Qo'qonda muallimlar jamiyatini tashkil etadi va uning nashri organi sifatida "Kengash" jurnalini chiqarishga kirishadi. Bu jamiyatning asosiy vazifasi yangi maktablar faoliyatini yaxshilash, ularni kerakli o'quv qurollari bilan ta'minlash, darsliklar yaratish va nashr etish, sotib olish va maktablarga tarqatish kabi ishlarni jadallashtirish edi. Bu jamiyatning faollari Ashurali Zohiriy, Abdulvahhob Ibodiy, Po'latjon Qayumiy, Umarjon Ubaydulla o'g'li va boshqalar edi.

Hamza oktyabr to'ntarishidan keyin sho'rolar hokimiyatini qo'llab-quvvatlovchi she'rlar, qo'shiqlar bitdi, bolsheviklarning yangi shakldagi mustamlakachilik siyosatini ko'ra olmadi. Ba'zan o'z qobiliyatini sho'ro hukumatining targ'ib-tashviqot ishlariga safarbar etdi, ammo u maorif sohasidagi faoliyatini to'xtatmadi. 1918 yildan u Qo'qon va Farg'onada,

1921-1924 yillarda Buxoro, Xorazm, Xo`jaylida o`qituvchilik qildi. 1926 yilda Hamzaga adabiyot va teatr san'atini rivojlantirishdagi katta xizmatlari uchun O`zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.

Hamza 1929 yilda Shohimardonda 40 yoshida bir guruh mutaassiblar tomonidan o`ldirildi. U qisqa hayoti davomida XX asr o`zbek jadidchilik harakatida, ayniqsa, jadid pedagogikasi va adabiyoti taraqqiyoti tarixida sezilarli iz qoldirdi. Mustaqillik tufayli Hamza ijodi va pedagogik merosini hech bir bo`rttirmay va albatta kamsitmay baholash boshlandi.

XULOSA

Darhaqiqat, usuli jadid maktablari faoliyat doirasining kengayib borishida, ularni darsliklar, o`qo`v qo`llanmalari bilan ta'minlashda, iqtidorli yoshlarning taraqqiy etgan chet el oliy o`quv yurtlarida ilm olishlarida xayriya jamiyatlari, nashriyot-matbaa va kutubxonalar, bir qator ma'rifatparvarlar, xususan, Hamza juda katta madadkor bo'ldi.

Xullas, Hamza tarjimai holiga nazar tashlar ekanmiz, u tahsil va ijod bilangina mashg`ul bo`lib qolmay, Turkiyada o`qiyotgan vatandosh o`quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko`rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko`paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzishga kirishadi. Bu haqda Zaki Validiy To`g`on quyidagilarni yozadi: “Bu jamiyat (“Tarbiyai atfol” jamiyati ko`zda tutilmoqda) Istanbulda bir sho`ba ocharoq, unga 1911 yilda 15, 1912 yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu sho`ba “Buxoro ta'mimi maorif jamiyati” (“Buxoro umumiy maorif jamiyati”) nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1910 yilda Eron yo`li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo`li bilan kelgan Usmonxo`ja, g`uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o`g`li bu jamiyatning quruvchilari edi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abdurashid Ibrahim, 20 Asrin Boslarinda Islam Dunyasi va Japonya'da Islamiyet. Istanbul, 1987, s. 37-38.
2. Afandizoda, Munavvarqori, Yosh Turkiston, 1934 y., № 50 yanvar.
3. Alixonto`ra Sog`uniy. Vatan ahllariga deganlarim. O`zbekim. "Vatan" seriyasi. Toshkent. 1992y., 221-bet.
4. "Al-isloh" jurnali, 1915 yil, 15 iyul.
5. Bartold V.V. Sochineniya v devyati tomax, II tom (chast 2). Moskva, 1963. S.345.
6. Buxoroda na ko`rdim? "Tarjimon", 1908 yil, 68-son.
7. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarg`a murojaat. "Oyna" jur. 1914 y. 41-son.
8. Tasviri afkor, 1908 yil 27 iyul.
9. Vaqt" gazetasi, 1907-yil, 213-son.
10. Jabborov N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2004 y., 10-bet.
11. Ziyosaid. O`zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar, Samarqand-Toshkent, 1927, 22-bet.
12. Ismoil bey Gasprinskiy (Gaspralo`). Iz naslediya, Russkoe musulmanstvo. Stavropol, "Tavriya". 1991, str. 29.
13. Ishoqxon Ibrat. Jome'ul-xutut, Namangan, "Matbaai Ishoqiya", 1912 yil, 16-bet.
14. Ishoqxon Ibrat. Mezonuz-zamon, qo`lyozma, II daftar, 34-35-betlar.

15. Kakie glavno`e printspo` doljno` bo`t v osnovu obrazovaniya inorodtsev-musulman. Turkestanskiy sbornik, tom 361, str. 142.
16. Muhammadjonov Mo`minjon, Turmush urunishlari, Toshkent, 1926 yil, 277-bet.
17. Mo`minjon Muhammadjonov – Toshqin, Turmush urunishlari, 245-bet.
18. Musulmanskie deputato` Gosudarstvennoy dumo` Rossii 1906-1917gg. Ufa, “Kitap”, 1998, str.178-179.
19. Mumtoz Er-Turkune, Jamoliddin Afg`oniy, Anqara, 1994
20. “Tarjimon”, 1906 yil, 12-son
21. Turkiston viloyatining gazetasi, 1910 y., 21 mart, 22-son.
22. Turkestanskije vedomosti, 1899g., 18 fevral.
23. Temur Xo`jao`g`li. Buxoro ta`mimi maorif jamiyati-xayriyasining nizomnomasi va xatti-harakati. Xaarlem, 2001 y.
24. Sultonov Yu. Xalq san'atkori. Toshkent. O`zadabiynashr. 1950., 16-bet.
25. Yusupov Sharif. Xudoyorxon va Furqat. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni, 1995 y. 86-bet.
26. Hoji Muin. Birinchi o`zbek alifbolari. “Maorif va o`qitg`vuchi” jurnali. 1926 y. 2-son.
27. Hamza. To`la asarlar to`plami. Besh tomlik. 5-tom. Toshkent, “Fan” nashriyoti. 1989 yil,
28. "Sho`ro" jurnali, 1913 y., 7-son.
29. Xo`jaev F. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. I tom, Toshkent, 1978 y.

